

**O'ZBEKISTONDA BRUTSELLYOZNING EPIDEMIOLOGIK
XUSUSIYATLARINI O'RGANISH VA EPIDEMIOLOGIK
NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH**

Parvizjon Sobirovich

SamDTU Epidemiologiya kafedrası, assistent o'qituvchisi Ibragimov

Annotatsiya: ushbu tadqiqot O'zbekistonda brutsellyozning epidemiologik xususiyatlarini o'rganish va epidemiologik nazoratni takomillashtirishga qaratilgan. Brutsellyoz – bu *Brucella* jinsiga mansub bakteriyalar tomonidan keltirib chiqariladigan infeksiyon kasallik bo'lib, asosan chorva mollari orqali insonlarga o'tadi. O'zbekistonda ushbu kasallikning tarqalishi qishloq joylarda, ayniqsa chorvachilik bilan shug'ullanuvchi aholi orasida keng tarqalgan.

Kalit so'zlar: brutsellyoz, epidemiologiya, mollar, kasallik tarqalishi, infeksiyon kasallik, profilaktika, emlash, klinik belgilari, ijtimoiy tadbirlar, kasallikning oldini olish.

Аннотация: данное исследование направлено на изучение эпидемиологической характеристики бруцеллеза в Узбекистане и улучшение эпидемиологического контроля. Бруцеллез – инфекционное заболевание, вызываемое бактериями рода *Brucella*, передающееся человеку преимущественно через домашний скот. В Узбекистане распространение этого заболевания широко распространено в сельской местности, особенно среди населения, занимающегося животноводством.

Ключевые слова: бруцеллез, эпидемиология, родинки, распространение заболевания, инфекционная болезнь, профилактика, вакцинация, клинические симптомы, социальные меры, профилактика заболеваний.

Abstract: this study aims to study the epidemiological characteristics of brucellosis in Uzbekistan and to improve epidemiological control. Brucellosis is an infectious disease caused by bacteria belonging to the genus *Brucella*, which is transmitted to humans mainly through livestock. In Uzbekistan, the spread of this disease is widespread in rural areas, especially among the population engaged in animal husbandry.

Key words: brucellosis, epidemiology, moles, disease spread, infectious disease, prevention, vaccination, clinical symptoms, social measures, disease prevention.

Inson tug'ilganidan to umrining oxirigacha tashqi muhitning turli omillariga duch keladi. Ana shunday omillardan biri — mikroduyo deb atalmish ko'pdan-ko'p turlari, ko'z ilg'amas mikroblar olamidir. Mikroblarning ayrim turlari inson tanasiga tushganida, bu holatga befarq qarab turmaydi. Boshqa somatik kasalliklardan farqli o'laroq, mikroblar ta'siri natijasida kelib chiqqan xastalik bemordan atrofdagi sog'lom

odamlarga ham tarqalishi mumkin. Shu bois bu xastaliklar yuqumli kasalliklar deb ataladi. Yer kurrasida uchraydigan yuqumli kasalliklar g'oyat ko'p bo'lib, ularni turli mikroblar qo'zg'atadi. Yuqumli kasalliklarning insoniyat orasida kelib chiqishi, tarqalishi va tugatilishining o'ziga xos qonuniyatlari mavjud. Kuzatuvlardan ma'lum bo'lishicha, yuqumli kasalliklarning butunlay yo'q bo'lib ketishi yaqin yillar ichida kuzatilmaydi. Zeroki, ba'zi kasalliklar tugatilayotgan bo'lsa, o'rniga yangilari kelib chiqmoqda. Shu sababli yuqumli xastaliklar uzoq yillardan beri tibbiyotning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. E'tiboringizga havola etilayotgan ushbu darslik yuqumli, tropik va parazitar kasalliklarning respublikamiz sharoitida tutgan o'rni, namoyon bo'lishi, tarqalish yo'llari, ularni davolash, epidemiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirish borasida oliy ta'lim bosqichidagi talabalarga bilim beradi. Mazkur i'qov q'i'llanma ilk marta chop etilganli bois, ayrim xato va kamchiliklardan xoli b'i'lmasligi mumkin, shuning uchun kitobning sifatini yaxshilashga qaratilgan har qanday fikrmulohazalar mualliflar tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilinadi. Qadim zamonlardan beri insoniyatga yuqumli kasalliklar ma'lum. Ko'pgina yuqumli xastaliklar qadimda g'oyat keng tarqalgan, og'ir kechgan va minglab odamlarning yostig'ini quritgan. O'sha davrdayoq olimlar vabo, chinchechak, o'lat kabi ko'p uchraydigan kasalliklar yuqumli ekanligini ta'kidlab, ularning tirik qo'zg'atuvchilari bo'lishi mumkinligini gumon qilganlar. Buqrot ularni "miazma"lar deb atagan. Hatto kasallikdan saqlanishning oddiy ehtiyot choralari ishlab chiqilgan.

Tabobat ilmining bobokaloni Abu Ali ibn Sino (980—1037) uzining "Tib qonunlari" kitobida "Kasalliklardan ba'zilar yuqumli bo'ladi" deb ko'rsatadi. "Bular, deb yozadi u — moxov, qo'tir, chechak, vabo isitmasi, yiringlagan yaralar kabi xastaliklardir".

O'zbekiston Fanlar akademiyasining hamda Rossiya Tibbiyot fanlari akademiyasining muxbir a'zosi A.O.Obidovning mikrobiologiya va immunologiya sohasidagi, professor—virusolog S.S.Maxsumovning virusologiyaga oid ilmiy ishlari katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish barcha tibbiyot xodimlarining vazifasi hisoblanadi. Chunki, kasallik tarqalmasligi uchun uni o'z vaqtida aniqlab, bemorni alohidalash lozim. Shunga ko'ra barcha tibbiyot xodimlari bu kasallikning asosiy belgilari, ayniqasa dastlabki alomatlarini yaxshi bilmoqlari shart. Tibbiyot xodimlari feldsher-akusherlik punktlari (FAP) da, poliklinika va qishloq shifokorlari qabulga kelgan har bir bemorda "yuqumli kasalligi yo'qmikan", degan taxminni yodda tutib ishlashlari kerak. Bunday kasallikka biroz gumon bo'lganda ham, darhol bemorni alohidalash zarur. Nima sababdan bemorga nisbatan shunday chora ko'rilayotganini uning o'ziga yoki (bola kasal bo'lgan holda) onasiga tushuntirish lozim. Ba'zi yuqumli kasalliklarda bemorni albatta maxsus shifoxonaga yotqizib davolash talab etiladi. Bunday holda tibbiyot xodimi, yuqumli kasalliklarni tashishga ixtisoslashgan transport

(epidperevozka) ga telefon orqali talabnoma beradi. Shuningdek, bemor bilan yaqin muloqotda bo'lganlar ro'yxati olinadi. Ular ustidan ma'lum muddatda kuzatuv olib boriladi, ba'zan laboratoriyada tekshiruvlar o'tkaziladi. Yuqumli (infeksion) kasallik aslida lotincha "infecio" so'zidan olingan bo'lib, "ifloslanish" ma'nosini bildiradi. Inson organizmi (makroorganizm) bilan kasallik qo'zg'atuvchi mikroorganizm (mikroorganizm) ning ma'lum sharoitda o'zaro ta'siri oqibatida yuzaga keladigan o'zgarishlar infeksiyon jarayon deb ataladi. Bu jarayon kasallik alomatlari ko'rinishida namoyon bo'lsa, u yuqumli kasallik deb yuritiladi. Xastalik alomatlari yaqqol, yoki biroz sezilarli darajada ifodalangan bo'lishi mumkin. Qanday darajada ifodalanishidan qat'i nazar, yuqumli kasallik bemor organizmida chuqur patofiziologik, immunologik va funksional o'zgarishlar paydo bo'ladi.

Brutsellyoz, malta isitmasi, qora oqsoq— odam va hayvonlarda uchraydigan infeksiyon kasallik; B.ni brutsella bakteriyalari qo'zg'atadi, ular tashqi muhitda (suv, tuproq, teri va hokazo) bir necha oy saqlana oladi; dezinfeksiyalovchi vositalarda bir necha minutda nobud bo'ladi. Brutsellalar kasal hayvonning suti, siydigi, go'ngi, tushgan bolasi bilan tashqariga chiqadi, ular shu hayvonning go'shtida ham bo'ladi. Organizmga brutsellalar hazm va nafas yo'llarining shilliq pardalari, shuningdek shikastlangan teri orqali tushadi. B. bilan og'rikan molning xom suti va sut mahsulotlari (pishloq, moy), shuningdek chala pishirilgan go'shti iste'mol qilinganda kasallik odamga yuqadi. B. bilan ko'proq molboqarlar, cho'ponlar, kushxona, terini oshlash korxonasi ishchilari va boshqa kasallanadi. B.da asosan nerv, yuraktomir sistemasi va suyakbo'g'im apparati zararlanadi. Kasallikning yashirin davri 1—3 hafta. Uning kechishi va belgilari xilmaxil bo'ladi. O'tkir boshlanganida isitma ko'tariladi, bemor g'araqg'araq terlaydi, lohaslik alomatlari kuzatiladi; oyoqqo'l, bel, muskul va bo'g'imlar zirqirab og'riydi. Isitma goh ko'tarilib, goh pasayib turadi, jigar, qora taloq kattalashadi, keyinroq bo'g'imlar yallig'lanadi va boshqa Bir necha oy o'tgach, bemor tuzala boshlaydi, ba'zan yillab cho'zilishi mumkin. Ayollarda chala tug'ish yoki bola tashlash kuzatiladi. B. ko'pincha astasekin boshlanadi. Tayanchharakat apparati jarohatlangandan keyingina bemor vrachga murojaat qiladi. Bemor kasalxonada davolanadi. Davo bemorning umumiy ahvoriga qarab tayinlanadi; antibiotiklar, fizioterapiya va boshqa buyuriladi. B.ning oldini olish uchun kasal hayvonlarni vaqtida aniklab, alohida boqish va so'yish; go'sht va sutini maxsus usullar bilan zararsizlantirish kerak. B. odamlarga yuqmasligi uchun mol bilan bevosita muloqotda bo'ladigan kasb kishilarini B.ga qarshi emlash va ularni maxsus kiyimbosh, korjoma bilan ta'minlash lozim. Hayvonlarda B.ni brutsellalar avlodiga mansub uch turdagi bakteriyalar, jumladan qo'yechkilarda *Brucella melitensis*, qoramollarda *V. abortus*, cho'chqalarda *V. suis* qo'zg'atadi. Boshqa uy hayvonlarida ham uchrashi mumkin. Qo'y va echkilarda uchraydigan B. odam uchun eng xavfli hisoblanadi. Hayvonlarga infeksiya yemxashak yoki suvdan, shuningdek sun'iy qochirishda

zararlangan sperma va boshqalardan yuqadi. Urg'ochi hayvonlarda B. bo'g'ozlikning ikkinchi yarmida bola tashlash (sigirlarda 5—8, qo'yechkilarda 3—4 oylikda, cho'chqalarda 4—12 haftalik bo'lganda), yo'ldoshning bachadon devorida tutilib qolishi, erkak hayvonlarda orxitalar (moyaklarning shamollashi), bo'g'imlarning kasallanishi kabi ko'rinishlarda kechadi. Ko'p hollarda B. yashirin ravishda o'tadi. Kasallik klinik belgilar, bakteriologik, serologik tekshirishlar asosida aniqlanadi, qo'y, echki, cho'chqalarda brutsellin biol. preparati yordamida allergik tekshiruv o'tkaziladi.

Epidemiologik xususiyatlar

1. Tarqalish: O'zbekistonda brutsellyoz asosan qishloq joylarda, chorvachilik bilan shug'ullanuvchi aholi orasida keng tarqalgan. Kasallik ko'proq yosh va mehnatga layoqatli aholi orasida uchraydi.

2. Kasallanish sabablari: brutsellyozning asosiy sabablari orasida sanitariya-gigiena qoidalariga rioya qilmaslik, past sifatli sut mahsulotlarini iste'mol qilish va hayvonlar bilan bevosita aloqa qilish kabilar mavjud.

3. Belgilari: kasallikning klinik belgilari har xil bo'lishi mumkin, lekin umumiy simptomlar orasida isitma, teri toshmasi, mushak va bo'g'im og'rig'i, charchoq va ko'ngil aynishi kuzatiladi.

Epidemiologik nazorat

1. Monitoring: brutsellyozning tarqalishini monitoring qilish uchun statistik ma'lumotlar yig'ish va tahlil qilish zarur. Bu jarayonda kasallik holatlari, ularning joylashuvi va tarqalish dinamikasi haqida ma'lumotlar to'planadi.

2. Profilaktika: brutsellyozni oldini olish uchun aholini ta'lim berish, sanitariya-gigiena qoidalariga rioya qilishni rag'batlantirish va hayvonlarni emlash kabi choralar ko'rish kerak.

3. Sog'liqni saqlash tizimi: sog'liqni saqlash tizimining brutsellyozga qarshi kurashishdagi roli muhimdir. Tibbiyot xodimlari uchun maxsus o'qitish va kasallikni tez aniqlash usullarini joriy etish zarur.

4. Ijtimoiy tadbirlar: brutsellyozni kamaytirish uchun ijtimoiy tadbirlar, masalan, chorva mollari bilan ishlovchi aholi o'rtasida profilaktik tekshiruvlar o'tkazish va sog'lom hayvonlarni boqish bo'yicha tavsiyalar berish muhimdir.

O'zbekistonda brutsellyozning epidemiologik xususiyatlarini o'rganish va nazoratni takomillashtirish sog'liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bu kasallikni oldini olishda xalqaro tajribalardan foydalanish va mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan strategiyalarni ishlab chiqish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar va havolalar

1. Qodirovich B. D. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI FANINING INSON HAYOTIGA IJOBIY TA'SIRI VA MEZONLARI HAQIDA UMUMIY

TUSHUNCHA. – 2023.

2. Qodirovich B. D. Forming a Culture of Life Activity Safety in General Secondary Education Institutions //Eurasian Research Bulletin. – 2023. – Т. 17. – С. 1-3.
3. АГЕНТАМИ П. БАКТЕРИОЛОГИК ВОСИТАЛАР БИЛАН ЗАРАРЛАНГАН ЎЧОҚДА ЭПИДЕМИЯГА ҚАРШИ ЧОРА ТАДБИРЛАРНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ҲУҚУҚИЙ АСПЕКТЛАРИ //Биология. – 2022. – №. 3. – С. 136.
4. Muhamadievich N. A., Kodirvich B. D. Patriotic Education as one of the Components Of National Security. Eurasian Scientific Herald 6, 88-90. – 2022.
5. Қобилов, Н., Қаршибоев, Ж., & Худоёрова, М. (2024). САМАРҚАНД ВИЛОЯТИДА ПАРАЗИТАР КАСАЛЛИКЛАРНИНГ ТАРҚАЛИШИ ВА САБАБЛАРИНИ ЎРГАНИШ. *Ilm-fan va ta'lim*, 2(2 (17)).
6. Қобилов, Н., Қаршибоев, Ж., & Худоёрова, М. (2024). ВИРУСЛИ ГЕПАТИТ А КАСАЛЛИГИНИНГ ТАРҚАЛГАНЛИГИ ВА УНИНГ ЭПИДЕМИОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *Ilm-fan va ta'lim*, 2(2 (17)).